AMIR TEMUR DAVLAT BOSHQARUVINING RAMZLARDA AKS ETISHI

Saimova Dilrabo Abdukarimovna

Annotatsiya: Mazkur maqolada Amir Temurning davlat boshqaruvida ehtiyotkorlik va adolat tamoyillariga amal qilganligi, “Temur tuzuklari” da davlat boshqaruviga oid qayd etilgan tartib-qoidalari hamda davlat ramzlari hamda ularning davlat boshqaruvidagi ahamiyati haqida so’z yuritiladi.

Kalit so’zlar: Imperiya, surgun, feodal tarqoqlik, hokim, amr, pragmatik, hukmdor, qo’shin, “Temur tuzuklari”, “Zafarnoma”, “Muntaxab ut-tavorixi Muiniy”, “Husayn Boyqaroning sirli o’limi”, “Piri Hirot”, “Shoh ovda”, “Sangi haft qalam”, “Xiroji olam”, “Sulton g’oziy” diplomatiya, saltanat, din, shariat, tuzuk, sipoh, raiyat, tabaqa, toifa, kengash, sarhang, sipohsolor, vazir, arbob, kotib, munshiy, hakim, tabib, munajjim, muhandis, muhaddis, so’fi, mashoyix, maktub, qilich, mulk, ustoz, pir, shayx, uzuk, nog’ora, bayroq, yoqut, la’l, javohir, ramz, sulola, nayza, geraldika, karat, xiroj, xazina, toj, saroy, maqbara, madrasa, gumbaz, minora, musavvir, zambarak, fiqh, millat.

XIV asrning II yarmi – XV asrning boshlarida Amir Temur o’zining buyuk imperiyasiga asos soldi. Movarounnahrda uzoq vaqt hukm surgan feodal tarqoqlikka chek qo’yildi hamda markazlashgan kuchli davlatga asos solindi. Davlat tepasida yakka hokim – amr turar edi. Davlat boshlig’i amir cheklanmagan hokimiyatga ega bo’lgan. Amir Temur davlatni idora qilishda adolat hamda qonun ustuvorligiga asoslanib ish ko’rishga, fuqaro manfaatlarini ko’zlab ish yuritishga a’lohida ahamiyat berdi. Temuriylar davri davlat boshqaruvi haqidagi eng muhim hamda boy ma’lumotlarni “Temur tuzuklari” dan olishimiz mumkin. Amir Temurga o’z davri hamda o’z xalqi talab-ehtiyojlarini to’g’ri anglagan pragmatik[1] hukmdor deb baho bersak o’rinli bo’ladi. Amir Temur mamlakatda davlat tizimini mustahkamlash, idora qilishdagi tartib-intizom, qonunchilikni kengaytirishga imkoniyat yaratish, soliqlarni tartibga solish, tinchlik hamda osoyishtalikni ta’minlash, buning uchun qo’shinning qudratini oshirish singari masalalarga keng e’tibor qaratdi. Sohibqiron faoliyati dunyo tarixchilari tomonidan ikki davrga ajratiladi:

Birinchi davri – 1360-1385 yillarni o’z ichiga oladi, bu davrda Movarounnahrda markazlashgan davlat tuzilib, o’zaro urushlarga chek qo’yildi;

Ikkinchi davri – 1386-1405 yillarni o’z ichiga oladi, bu davr Sohibqironning harbiy yurishlari davri hisoblanadi. Buyuk sarkarda, markazlashgan davlat asoschisi Amir Temur mislsiz aql-idrok, o’tkir zehn, ilohiy kuch-qudrat sohibi sifatida butun dunyoga tanildi. Uning mardligi, jasurligi, dovyurakligi, harbiy mahorati, tarix zarvaraqlarida muhrlandi[2]. Bundan tashqari, Nizomiddin Shomiyning “Zafarnoma” asarida, Sharafiddin Ali Yazdiyning “Zafarnoma”asarida hamda Muiniddin Natanziyning “Muntaxab ut-tavorixi Mu’iniy” kabi asarlarida Amir Temurning olib borgan bunyodkorlik ishlari, diniy islohotlari hamda davlat boshqaruviga oid qilgan ishlari haqida keng ma’lumotlar beradi hamda Amir Temur shaxsi ulug’lanib, “Sulton G’oziy”[3] deb ham ataladi. Bundan tashqari, manbalardagi ma’lumotlarda Amir Temur qilgan har bir ishini Tangri Taoloning hohish-istagi bilan qilgani haqida aytiladi. Amir Temur davlatni “Kuch adolatdadir” shiori asosida boshqaradi hamda avlodlarga benazir ma’naviy meros qoldirdi.

---

[1] Pragmatika (yunoncha.pragma, pragmatos – ish, harakat, ya’ni harakatchan degan ma’noni bildiradi).

[2] Davlatova SH. Davlat boshqaruvi to’g’risidagi g’oyalar. -Termiz: Surxon-nashr, 2022. –B. 137.

[3] Sulton G’oziy - „din uchun kurashuvchi sulton” – Amir Temurning unvonlaridan biri bo’lib, <<Muntaxab>>da ko’proq shu shaklda, bir necha joyda <<Shohi G’oziy>> shaklida yozilgan.

Amir Temurning “Temur tuzuklari” milliy davlatchiligimiz tarixiga oid eng muhim manbalardan biri hisoblanadi. XIV asrning II yarmidan XV asrning boshlaridagi siyosiy jarayonlarni o’zida ifoda etgan bu tarixiy asarda Amir Temurning davlatchilik va diplomatiya, harbiy mahorat, bunyodkorlik salohiyati, ilm-u fan, san’at va me’morchilikka oid qarashlari, hayotning ma’no-mazmuni, insonni ulug’laydigan ezgu ishlari haqida bildirgan fikrlari, din-u diyonat va adolatni joyiga qo’yish, saltanat ishlarini kengash va maslahat asosida amalga oshirish, har bir masalada uzoqni ko’zlab, xalq manfaatini o’ylab ish tutish bilan bog’liq masalalar yoritilgan.

“Temur tuzuklari” ning ikkinchi qismidan joy olgan “Mamlakat ishlari tuzuki” da Amir Temur: “Dinu shariat ishlari tuzukini tartibga keltirganimdan keyin saltanatim korxonasining tuzukini tuzishga kirishdim. Saltanat ishlarini qonun va qoidalar, to’ra va tuzukka solib, saltanatim martabayu-e’tiborini saqladim”[4], - deydi hamda saltanatni mustahkamlash, uning martabasini saqlash uchun quyidagi to’rtta tuzukka asosan ish tutganligini bayon etadi. Ularning birinchisi – saltanatning qonun-qoidalarini islom dini, shariat qoidalariga asoslanib tashkil etilganligi. Bu xususida “Saltanatim martabasini to’ra va tuzuklar asosida shunday saqladimki, uning ishlariga aralashishga hech kimsaning qurbi yetmasdi”[5] – deb takidlaydi. Ikkinchi tuzukida – sipohu-raiyatni umid va qo’rquv asosida saqlagan, do’st-u dushmanni murosa qilishga, kelishishga undaganligi haqida, uchinchi tuzukida – hech kimdan o’ch olishga harakat qilmagan, unga yomonlik qilganlarni Parvardigori olamga topshirgan. Atrofida har tomonlama sinalgan, shijoatli, ish ko’rgan yigitlarni to’plaganligi xabarini beradi. To’rtinchi tuzukida – ochiq yuzlilik, rahm-shafqat bilan xalqni o’zi tomon og’dirib olgan, adolat bilan ish yuritib, jabr-zulmdan uzoqroqda bo’lishga intilganligi aks etgan.

Amir Temur “Tuzuklari” da davlat hokimiyati qanchalik keng ijtimoiy qatlamlar manfaatlariga tayansa hamda jamiyat vakillari bilan kengashib, ularning fikr-u mulohazalari asosida davlat o’z siyosiy faoliyatini tashkil etsa, davlat shu darajada kuchli va mustahkam bo’lishi isbotlab berilgan[6]. Amir Temur jamiyat a’zolarini 12 toifaga bo’ladi, ulardan har birining jamiyatdagi o’rni davlat siyosatiga qay darajada ta`sir qila olishini tavsiflaydi va mamlakatni boshqarishda ularga suyanib ish tutganligini shunday e’tirof etadi: 12 tabaqa va toifadagi kishilar bilan mamlakatni qo’limda tutib, saltanatimni boshqardim. Davlat, saltanat ustunlarini o’shalar bilan quvvatlab, majlislarimni shular bilan ziynatladim[7].

Bundan tashqari, “Temur tuzuklari” da Amir Temur ustozi Abubakr Toyobodiyning yo’llagan maktubi haqida ham to’xtalib o’tadi. Manbada ustozi tomonidan Amir Temurga yuborilgan maktubda Sohibqiron amal qilishi kerak bo’lgan amallar sifatida quyidagilar keltirilgan:

1. (o’zing bilan) kengash.

2. (boshqalar bilan) mashvaratu maslahat ayla.

3. Hushyorligu mulohazakorlik bilan qat`iy qaror chiqar.

4. Ehtiyotkor bo’l[8].

Amir Temur asarda: “Bu maktub menga yo’l boshlovchi yanglig’ rahnamolik qildi. U menga saltanat ishlarining to’qqiz ulushi mashvarat, tadbir va qolgan bir ulushi esa qilich bilan bajo keltirilishini

[4] Temur tuzuklari. -Toshkent: O’zbekiston, 2011 –B. 88.
[5]Temur tuzuklari. -Toshkent: O’zbekiston, 2011 –B. 88-89.
[6] Davlatova SH.Davlat boshqaruvi to’g’risidagi g’oyalar. -Termiz: Surxon-nashr, 2022. –B. 139.
[7] Temur tuzuklari. -Toshkent: O’zbekiston, 2011. –B. 74.
[8]Temur tuzuklari. -Toshkent: O’zbekiston, 2011. –B. 14.

anglatadi”[9] – deydi. Aynan yuqorida sanab o’tgan 12 toifa vakillari orasidan yettinchi toifaga kiruvchi vazirlar faoliyati va kengashiga Amir Temur alohida e’tibor qaratadi. Bu haqida manbalarda keltirilishicha Sohibqiron shunday deydi: “Men o’zimga adolatli va rahimdil to’rt vazirni tanladim. Ulardan ikkisi Mahmud Shahob Xurosoniy va Nosiriddin Mahmud al-Aromiy erdi. Bu ikki vazirimga doimo meni kuzatib turishlarini va agar men adolatsizlik qiladurg’on bo’lsam, darxol meni to’xtatishlarini, kimningdir yolg’on so’zlariga inonsam yoki begona kimsani mulkiga xiyonat qiladurg’on bo’lsam darhol meni ogohlantirishlarini ta’kidlab qo’ydim.Va ularning o’zlariga ham musulmonlarning moliga ta’ma qilmanglar dedim”[10] – deb ta’kidlaydi. Bundan tashqari, shuni alohida ta’kidlab o’tishimiz joizki, Amir Temurning markazlashgan davlat tuzishi hamda undagi boshqaruv sohasidagi amalga oshirgan islohatlarida ustoz hamda pirlarining o’rni ham katta ahamiyatga ega bo’ldi. Bevosita Amir Temur e’tiqod qilgan va iroda yo’lini bergan pir hamda ustozlari – Shayx Shamsiddin Kulol, Shayx Zayniddin Abu Bakr Toyobodiy hamda Mir Sayyid Baraka janoblari hisoblanadilar. Shayx Zayniddin Abu Bakr Toyobodiy Amir Temurga “Kuch – adolatda” so’zlari o’yib yozilgan tillo uzuk, Mir Sayyid Baraka esa uchrashuvdayoq saltanat timsoli bo’lgan nog’ora va bayroq tuhfa qilgan edilar. O’zining ruhiy madadi, ko’magi bilan hamisha Sohibqironga kamarbasta bo’lgan Mir Sayyid Baraka to so’nggi nafasiga Sohibqiron Amir Temur bilan birga umrguzaronlik qildi[11].

Amir Temur davlati boshqaruv sohasida davlat ramzlarining ham alohida o’rni bor. Bizga ma’lumki, Amir Temurga davlat ramzi hisoblangan dastlabki bayroq hamda nog’orani yuqorida ta’kidlab o’tganimizdek, Amir Temurning piri hamda ustozi Mir Sayyid Baraka tomonidan Biyo qishlog’ida Sohibqironga tortiq qiladi. So’nggi vaqtlarda ko’plab tadqiqotchi olimlar tomonidan temuriylar sulolasiga oid ko’plab tadqiqot ishlari olib borilmoqda. Juda ko’plab bahs-munozaralarga sabab bo’lgan mavzulardan biri bu Amir Temur davlati ramzlari ya’ni bayrog’i, Amir Temurning yoquti hamda uzugidir. Jumladan “Shoh ovda” asari bilan tanishgan olimlar fikricha, bayroq dastasining uzunligi 5 metrdan kam bo’lmay, uchiga nayza ko’rinishidagi metall moslama, uning tagida esa musulmonlikning ramzi bo’lmish yarim oy hamda turkiy xalqarda an’anaga aylangan to’zigan ko’rinishidagi qo’tos dumi, ularning tagiga esa uchburchak shaklli oq mato tortib biriktirilgan bo’lib, unda geraldika holatida turgan sher va uning orqasida nur sochayotgan quyoshning bir qismi tasvirlangan. Bayroq haqida mulohaza yuritadigan bo’lsak uning hajmi, rangi, tasvirlarning mazmuni kabi bir qator muammolarga duch kelamiz. Minatyuradagi bayroq uchburchak shaklda bo’lib, bu shaklni boshqa manbalarda ham ko’rish mumkin. Matoning oq rangda bo’lishligi turkiylarda oq rang muvaffaqiyat, g’alaba, omad ramzi, oq ko’ylak motam belgisi. Temuriylar davri me’moriy yodgorliklariga, kulolchilik san’ati buyumlariga nazar tashlaydigan bo’lsak, tiniq moviy rangga bo’lgan e’tibor yaqqol ko’zga tashlanadi. Keltirilgan misol va mulohazalardan kelib chiqib, ta’riflanayotgan bayroq Temuriylar davlatining asosiy ramzlaridan biri – bosh bayroq vazifasini o’tagan hamda harbiy to’qnashuvlar davrida muhim rol o’ynagan.[12]

Amir Temur yoquti haqida to’xtaladigan bo’lsak – Sohibqiron Amir Temurga tegishli bo’lgan qimmatbaho tosh “Temur yoquti” dir. 361 karat (72 gramm) vaznga ega bo’lgan bu tosh ko’pchilik mutaxasislarning aytishicha, aslida yoqut emas, balki la’l (javohir) sanaladi. U o’z davrida juda yuqori narxlarga baholabgani uchun o’rta asrlarda “Xiroji olam” ya’ni dunyoning xirojiga teng tosh, deb ham nomlangan.1398-yil Hindistonni zabt etgan Sohibqiron Amir Temur katta xazinalar qatori mazkur qimmatbaho javohirni ham qo’lga kiritadi.Bu javohir Sohibqironga yoqib qoladi va unga

[9]Temur tuzuklari. -Toshkent: O’zbekiston, 2011 -B. 14.
[10]Zafar yo’li. -Toshkent: Nur, 1992. –B. 12.
[11]Muhammad Ali. Amir Temur solnomasi. -Toshkent: O’zbekiston, 2008. –B. 15-16.
[12] O’tkir Alimov.Amir Temur davlat bayrog’i maqolasidan.

sayqal berib, o'z tojiga o'rnatadi. Toshga suls xatida "Amir Temur Ko'ragon" nomini yozdiradi. Ayrim ma'lumotlargan ko'ra ushbu javohir to umrining oxiriga qadar buyuk sarkardaning tojini bezab turgan. Bu qimmatbaho tosh 1407-yilda Amir Temurning to'rtinchi o'g'li Shoxrux Mirzoga o'tgan. Toshda uning ham ismi borligi ushbu ma'lumotni tasdiqlaydi. 1447-yilda esa, Movoronnahr va Xuroson hukmdoriga aylangan Ulug'bek ham bu toshga sohib chiqqan va unga "Mirzo Ulug'bek ibn Shohrux" so'zlarini o'yib yozdirgan.[13] Keyinchalik bu javohirga Shoh Abbos, Jahongir, Shoh Jahon, Avrangzeb, Nodirshoh, Ahmadshoh, Temur, Zamon Mirzo, Mahmud, Shujomulk, Ranjit Singx hamda Qirolicha Viktoriyalar egalik qilishadi. Ayni paytda "Temur yoquti" Bukingem saroyidagi "Hindiston xonasi" da saqlanadi.

1965-yilda Hirot shahrida Xo'ja Abdulla Ansoriyning tavallud topganligi ming yilligini nishonlash munosabati bilan o'tkazilgan xalqaro qo'lyozmalar ilmiy konfrensiyasida Sulton Husayn Boyqaro va Mir Alisher Navoiy qabrlari ochib, tegishli tadqiqotlar olib borish haqida qaror qabul qilindi. Shu qarorga asosan Rizo Moil Hiroviy, alloma Ustod Xalillo Xaliliy, akademik Salohiddin Saljuqiy va boshqa bir qancha xorijiy ekspertlar ishtirokida qabrlar ochilib, tadqiqotlar olib borildi. Shunda Husayn Boyqaro jasadining o'ng qo'l ko'rsatkich barmog'ida g'aroyib uzuk topiladi. Olimlar uni o'rganishni boshlaydilar. Ustod Xalillo Xaliliy bu noyob topilmani o'z qo'li bilan Muhammad Zohirshohga tuhfa qiladi.[14] Mazkur dalillarga asoslanib, shuni xulosa qilish mumkinki, bu ajoyib-g'aroyib topilma Sohibqiron Amir Temurdan uning avlodlariga meros bo'lib o'tgan. Sharqshunos Turg'un Fayziyevning "Husayn Boyqaroning sirli o'limi" asarida shunday yozadi: "Tarixchi Xondamirning yozishicha, Sulton Husayn Boyqaroning jasadi o'zi qurdirgan madrasa gumbazi ostiga dafn etilgan. Madrasa Musallo yoniga qurilgan bo'lib, o'zining salobatli va muhtashamligi bilan kishini lol qoldiradi. Biroq XIX asrda Afg'oniston amiri Abdurahmonxon zamonida ingliz mushovirlari "Ruslar Hirotni zabt etmoqchi, binobarin baland va ulkan minoralar ularning zambaraklariga nishon bo'lishi muqarar" deb minoralarni buzib tashlashni maslahat beradilar. Shundan so'ng minora portlatiladi. Natijada bir nechta osori-atiqa yodgorliklar kultepaga aylantiriladi. Jumladan, Sulton Husayn Boyqaro qurdirgan madrasa ham vayronaga aylanadi. Sulton Husayn Boyqaro maqbarasi qoshiga qo'yilgan "Sangi haft qalam" marmar toshi haqida "Piri Hirot"asarida quyidagi jumlalar yozilgan: "Sangi haft qalam" jahondagi xattotlik san'atining bebaho durdonalaridan bo'lib, Husayn Boyqaro tomonidan shaxsan o'z qabriga atab buyurtirilgan qabr toshi edi. O'zbekiston xalq yozuvchisi Muhammad Alining aytishicha, Amir Temur uzugi bugungi kunda Amerikada Nyu-York shahridagi "Metropoliten" muzeyining "Islom bo'limi"da saqlanayotganligi haqida ma'lumotlar bor.

> Xulosa qilib shuni aytishimiz mumkinki, Sohibqiron Amir Temur o'z siyosatida ham adolat, haqqoniylik hamda odillikka tayanib ish tutadi.Chunki o'z siyosatida haq yo'lini tanlagan Amir Temur bundan boshqa siyosat yuritishi mumkin emasdi. U nimaiki qilsa shariat doirasida, musulmon fiqhi qoidalariga tayanib, umuman Islom qudrati bilan ish tutdi. Amir Temur o'z piri Abu Bakr Toyobodiyning "rosti-rasti" ya'ni "haqgo'y bo'lsang, najot topasan" hikmatini o'z tamg'asiga muhr sifatida o'rnashtirgan edi[15]. Shunday qilib, Amir Temur ham adolat haqidagi o'z qarashlarini diniy tamoyillar asosida bayon qiladi, shu sababli Amir Temur "Shoh G'oziy" nomi bilan ulug'lanadi. Birinchi prezidentimiz Islom Abdig'aniyevich Karimov: - Kimki o'zbek nomini, o'zbek millatining kuch-qudratini, adolatparvarligini, cheksiz imkoniyatlarini, uning umumbashariyat rivojiga qo'shgan hissasini, shu asosda

[13] Ozod Mo'min.Buyuk Amir Temurning yoquti-Toshkent.Sharq yulduzi 1992.
[14] ,,Jahon adabiyoti" jurnali 2-son.
[15]Ibn Arabshoh.Ko'rsatilgan asar, II-qism. –B. 65.

kelajakka ishonchini anglamoqchi bo'lsa, Amir Temur siymosini eslashi kerak, - deganida naqadar haq edi.

ADABIYOTLAR RO'YXATI:

1."Temur tuzuklari''

2.Sharafiddin Ali Yazdiy "Zafarnoma''

3.Nizomiddin Shomiy "Zafarnoma"

4.Muiniddin Natanziy "Muntaxab at-tavorixi Muiniy"

5.Davlatova SH."Davlat boshqaruvi to'g'risida g'oyalar"

6."Zafar yo'li "

7.Muhammad Ali "Amir Temur solnomasi "

8.Ibn Asar."Ko'rsatilgan asar " II-qism.

9.Ozod Mo'min "Buyuk Amir Temurning yoquti"

10.O'tkir Alimov "Amir Temur davlat bayrog'i"

11."Jahon adabiyoti" jurnali 2-son

